

MIRZO ULUG`BEK KO`RAGON ILMIIY AKADEMIYASIDA UNING SHOGIRDI VA DAVOMCHISI ALOVIDDIN ALI IBN MUHAMMAD AL-QUSHCHINING ROLI VA UNING ILMIIY ME`ROSI

Elova Dilnoza
T.f.f.d (PhD) BuxDu

Olimova Iroda
4 kurs talabasi

Annotatsiya. *Yoshligidan serg`ayrat va tirishqoq inson bo`lgan Ali Qushchi shaxsiyati, ayniqsa, temuriylar davrini o`rganishda ko`zga tanishadi. Ushbu maqolada Muhammad Tarag`ay - Ulug`bek ilmiy akademiyasining yirik namoyondasi, Mirzo Ulug`bek Ko`ragonning sevikli shogirdi va uning davomchisi Ali Qushchining hayoti, uning ilmiy-ma`rifiy boy me`rosi haqidaso`z boradi.*

Kalit so`zlar. *Ali Qushchi, Ulug`bek akademiyasi, „Matematik va astronomik jug`rofiya asari, Kermon, Muhammad II, mudarris, Mirim Chalabiy, „Zij`ning mukammal sharhi, Ulug`bekning „farzand arjumandi``, „o`z davrining Ptolomeyi``.*

Barchamizga ma`lumki, O`zbekiston Uchinchi uyg`onish davri tamaddunini boshdan kechirayotgan mamlakatdir. Albatta, bunda biz yoshlardan ulkan mehnat, yaratuvchanlik va tashabbuskorlik talab qilinadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirzoyoyev aytganidek “Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo`lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o`choqlaridan biri bo`lganini ko`ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy me`rosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, teran ildizlaridan dalolat beradi”.

O`zbekiston tarixida Mirzo Ulug`bek homiyligi asosida tuzilgan Samarqand ilmiy maktabi ayniqsa o`rnak bo`ladigan hodisadir. Bu zamin juda ko`plab ilm-fan namoyondalarini yetishtirib berdiki, hali-hanuzgacha ularning nomlari tarixda o`chmas iz qoldirdi. Jumladan, Ulug`bek akademiyasi XV asrda ana shunday dargohlardan biri bo`lib, unda faoliyat olib brogan va shu rasadxona qurilishiga bosh-qosh bo`lgan¹ ma`rifatparvar insonlardan biri, yetuk shaxs Aloviddin Ali ibn Muhammad al- Qushchidir. Ayrim manbalarda 1402 yilda Samarqandda dunyoga kelgan. Qushchi taxallusi bilan mashhur bo`lgan bu insonning juda serg`ayrat bo`lganligi sababli ham shunday nomga sazvor bo`lgan degan ma`lumotlar uchraydi. Zero, o`zbeklar orasida bu kabi insonlar lochinga qiyos berilgan.²

Boshlangich ma`lumotni Samarqandda olgandan, so`ng hali Samarqandda Jamshid al-Koshiylar yo`qligi sababli o`qishni davom ettirish uchun Kermonga ketadi. 1416-yilning oxirlarida Samarqandga qaytadi va Ulugbek akademiyasida o`z faoliyatini boshlaydi. O`zining serg`ayratligi, bilimdonligi tufayli

¹ Вороновский Д. Г. Астрономы Средней Азии от Мухаммеда ал-Хаваразми до Улугбека.— Ташкент, 1965.

² А.Абдурахмонов Улугбек академияси Т. С.19



atrofidagilar orasida juda tez e`tibor qozonadi. Qozi Zoda va Jamshid al-Koshiylarning vafotidan so`ng esa rasadxonadagi ilmiy ishlarda butunlay Ali Qushchi mas`uliyatni bo`yniga oladi.

1438-yili Ulug`bek Qushchini Xitoy saltanati huzuriga elchi kilib yuboradi. Xitoydan qaytib kelgach, u o`zining “Matematik va astronomik jug`rofiya” nomli asarini yozadi. Mirzo Ulug`bek Ali Qushchiga juda ko`p ishlarda ishongan va hatto, uning ko`magida Ulug`bek yulduzlar jadvalini ertaroq tugatishga qodir bo`lgan.³

Ulugbek vafotidan so`ng rasadxonada paydo bo`lgan juda og`ir vaziyatga qaramasadan Ali Qushchi o`zining sodiq shogirdlari ishtirokida ilm va fanni qo`llab quvvatlashda davom etadi. Ulug`bek siyosatiga nisbatan adovati bo`lgan shaxslar tazyiqi ostida Ali Qushchi Samarqanddan ketishga majbur bo`ladi. Bu vaziyatda u muqaddas haj ziyoratiga, Makkaga borishni vaj qilib ko`rsatadi. Va u bilan birga Ulug`bek akademiyasining boshqa xodimlari ham ketishadi. Ali Qushchini Xurosonga borish fikridan qaytishiga esa bu yerda ma`rifatga Shohruh davridagidek homiylik yo`qligi edi. Shunday qilib, u Kermonda - sulton Hasanbek al-Koyunli (1453-78) saroyida boshpana topdi. Ulug`bekning “farzandi arjumandi” Ali ibni Muhammad Qushchi qariyb o`n yil Kermonda Qushchi Mirim Chalabiy, Husayn Birjandiy kabi shogirdlari bilan Ulug`bek akademiyasi an`analarini davom ettirdi. A. Abduraxmonovning yozishicha u 1464 yilda Turkiyaga boradi va sulton Hasanbekning buyrug`i asosida Muhammad II saroyida elchi sifatida qoladi.. Turkiyaga Ali Qushchi bilan birga uning shogirdi Mirim Chalabiy ham keladi. Asl ismi Muhammad ibn Muso ibn Maxmud Qozi Zoda Rumiyy bo`lgan Chalabiy otasi bo`yicha Salohiddin Qozi Zoda Rumiyyning, onasi bo`yicha Ali Qushchining nabirasi edi.

1453-yili Muhammad II Konstantinopolni zabt etgach va poytaxt shu yerga ko`chiriladi va Istanbul shahriga asos solinadi. Ilm-fan bilan butunlay band bo`lgan Qushchi Muhammad II ga “Risolai Muhammadiya” asarini bag`ishlaydi. Qushchi asarini 1473 yilda sultonga hadiya etadi va evaziga esa har oy 200 dirxamdan maosh, shuningdek, Ali Qushchini Ayo Sofiya madrasasiga mudarris etib tayinlanadi.⁴

Ali Qushchining “Arifmetik risola`si, «Kasrlar haqida risola`si va «Muhammadiya risola” si matematikaning muhim masalalari - arifmetik amallar, ularni bajarish tartibi, unli kasrlar, ular ustida amallar, hozirda biz algebra darsliklariga kiritadigan qisqa-ko`paytirish formulalari, musbat va manfiy sonlar tushunchalari va boshqalarga bag`ishlangan. Shuningek, Ali Qushchini „o`z davrining Ptolomeyi` deb ulug`lashgan.⁵

Ali Qushchining “Astronomiyaga doir risola”si bilan birga uning „Ulugbek zijiga sharh` asarlari astronomiya tarixida juda muhim rol o`ynaydi. Ali Qushchi “Ulugbek ziji”ni geometriya teoremlari yordamida asoslab beradi va bu „Zij` uchun yozilgan eng mukammal sharhsifatida e`tirof etiladi. Ali Qushchi asarlarining 23 ta qo`lyozmasi ma`lumdir.⁶

Ayrim manabalarga suyanadigan bo`lsak, Ulug`bekning rasadxonadagi kutubxonaning noyob kitoblari Ulug`bekning sodiq shogirdi Ali Qushchi tomonidan ko`chirib olib ketilgani aytiladi Shuni aytish lozimki, Ali Qushchi Samarqanddan Ulug`bek vafotidan so`ng ancha keyinroq ketgan, ancha muddat

³ М.С. Булатов ОБСЕРВАТОРИЯ УЛУГБЕКА В САМАРКАНДЕ.1986 с.7

⁴ А.Абдурахмонов Улугбек академияси Т. С.20

⁵ М.С. Булатов ОБСЕРВАТОРИЯ УЛУГБЕКА В САМАРКАНДЕ.1986 с.8

⁶ Г. Собиров. Творческое сотрудничество ученых Средней Азии в Самаркандской научной школе Улугбека, Душанбе, изд. «Ирфон», 1973, 60-бет.



Samarqand yaqinidagi Hazrat Bashir qishlogida yashirincha hayot kechirgan. Qulay fursat topib Samarqanddan Ulug‘bek kutubxonasini o‘sha qishloqqa ko‘chirgan. Lekin, kutubxonadagi qariyb 15 ming kitoblarni hammasini olib kela olganmi yo‘qmi u haqda ma’lumot yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. А.Абдурахмонов Улугбек академияси Т. 1994
2. М.С. Булатов ОБСЕРВАТОРИЯ УЛУГБЕКА В САМАРКАНДЕ.1986
3. Дилноза, Элова. "История Появления Автомобилей И Тракторов В Бухаре В Начале Хх Века." (2023).
4. Г. Собиров. Творческое сотрудничество ученых Средней Азии в Самаркандской научной школе Улугбека, Душанбе, изд. «Ирфон», 1973,
5. Элова, Дилноза Давлатовна. "ТУРКИСТОН ТАРАҚҚИЙПАРВАРЛАРИНИНГ ЯНГИ ТЕХНИКАЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЛКА БЎЙЛАБ ТАРҚАЛИШИДАГИ РОЛИ." Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning 2.1 (2024): 9-12.
5. М.С. Булатов ОБСЕРВАТОРИЯ УЛУГБЕКА В САМАРКАНДЕ.1986

